“PREZIDENT IQTIDORLI FARZANDLARI” TASHABBUSINI QO‘LLAB-QUVVATLASH BO‘YICHA MILLIY DASTURNI AMALGA OSHIRILISHIDA MAKTAB MASLAHATCHISINING ROLI

Kazakova Saxiba Abdurayimovna,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining
Akademik faoliyat bo‘yicha birinchi prorektori
sakhibakazakova86@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.18154126

Annotatsiya: *Mazkur maqolada “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy dasturni amalga oshirilishida Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlaridagi faoliyat olib borayotgan maktab maslahatchisining roli to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *maktab, milliy dastur, maktab maslahatchisi, bosh maslahatchi, o‘quvchi, kasb, universitet, akademik, psixologik, ijtimoiy, shaxs, reyting.*

Роль школьного консультанта в реализации национальной программы поддержки инициативы “Одаренные дети Президента”

Казакова Сахиба Абдураимовна,
Первый проректор по академической деятельности Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони

Аннотация: *В данной статье представлена информация о роли школьного консультанта, работающего в Президентских школах, специализированных школах и школах-интернатах, в реализации Национальной программы поддержки инициативы “Одаренные дети Президента”.*

Ключевые слова: *школа, национальная программа, школьный консультант, главный консультант, ученик, профессия, университет, академический, психологический, социальный, личность, рейтинг.*

The role of the school counselor in the implementation of the national initiative support program “Gifted children of the President”

Kazakova Sahiba Abduraimovna,
First Vice-rector for Academic Affairs National Institute of Pedagogical Mastery named after Abdulla Avloni

Abstract: *This article explores the role of school conselor oif the Presidential schools, specialized schools, and boarding schools in the implementation of the National Initiative Support Program entitled “Gifted Children of the President”.*

Keywords: *school, national program, school counselor, head counselor, student, profession, university, academic, psychological, social, personality, rating.*

Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan sharoitda har bir davlatning taraqqiyoti, avvalo, uning intellektual salohiyati, yosh avlodning bilimi, iqtidori va tashabbuskorligi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusi [1] mamlakatda iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim milliy dastur hisoblanadi.

Ushbu dasturni samarali amalga oshirishda maktab ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlari qatorida maktab maslahatchisining roli alohida ahamiyat kasb etadi. Maktab maslahatchisi – ta’lim tizimidagi muhim shaxslar bo‘lib, o‘quvchilarning akademik, shaxsiy va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam berish, o‘quvchining ichki imkoniyatlarini anglash, iqtidorini ro‘yobga chiqarish va to‘g‘ri yo‘naltirishda bilan shug‘ullanadi. Shunday ekan, bugun ularning roli zamon talablari asosida yanada yuqori ahamiyat kasb etmoqda. Qolaversa, “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy dasturni amalga oshirish ishlarida ham maktab maslahatchisining hissasi beqiyos hisoblanadi. Maktab maslahatchilari ta’lim jarayonida o‘quvchilar, ularning ota-onalari va o‘qituvchilar o‘rtasida muloqotni o‘rnatish, o‘quvchilarning muammolarini hal etish va ularning akademik tomondan rivojlanishiga, shuningdek, o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olgan holda ularning o‘z kasbini aniqlash va o‘sha kasbning yetuk mutaxassislariga aylanishda beminnat yordam bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–86-son Farmoni [1] ijrosini asosida “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy dasturi tashkil etilgan bo‘lib, yurtimiz bo‘ylab iqtidorli o‘quvchilarni erta aniqlash, ularni maqsadli tayyorlash va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan umummilliy dastur hisoblanadi.

Milliy dastur doimiy asosda amalga oshirilib, uni tashkil etish va boshqarish Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

Milliy dastur ishtirokchilari umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining eng iqtidorli 9-sinf bitiruvchilari orasidan har yili tanlov imtihoni asosida saralab olinadi va dasturga qabul qilinadi.

Dasturga qabul qilingan o‘quvchilar o‘z ta’lim tashkilotlarida 10-11-sinf (yoki unga teng) ta’limini davom ettirgan holda Milliy dastur ishtirokchisi maqomiga ega bo‘ladilar hamda ushbu davrda Milliy dastur doirasidagi qo‘shimcha ta’lim va tarbiya imkoniyatlaridan foydalanadilar.

Ishtirokchilar o‘z shaxsiy akademik portfoliosini yuritib borishi, dastur intizomi va odob-axloq qoidalariga amal qilishi shart ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Maktab maslahatchisi – Milliy dastur ishtirokchisi etib tanlangan har bir o‘quvchiga biriktiriladigan tajribali mutaxassis-pedagogdir. Maktab maslahatchilari Agentlik tizimidagi Prezident, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida faoliyat olib borayotgan mazkur lavozimdagi xodim hisoblanadi va ular 10-11-sinf (yoki unga teng) davomida biriktirilgan ishtirokchining individual ta’lim rejasini shakllantirib, uning sifatli amalga oshirilishini nazorat qiladi.

Maktab maslahatchisining vazifalariga quyidagilar kiradi:

• o‘quvchining qiziqish va qobiliyatini o‘rganib, individual rivojlanish rejasini tuzish;

• o‘quvchining maktabidagi asosiy darslari [8] hamda qo‘shimcha ta’lim platformasidagi faoliyatini muntazam kuzatib borish, akademik yutuqlarini baholab borish;

• fanlar, kasblar va oliy ta’lim muassasalari tanlovi bo‘yicha individual maslahatlar berish;

• o‘quvchini nufuzli xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga kirish talablari va hujjat topshirish tartibi haqida xabardor qilib borish;

• zarur hollarda o‘quvchini yuqori natijalarga erishgan soha mutaxassislari bilan bog‘lash, onlayn yoki oflayn master-klasslar uyushtirish;

• biriktirilgan o‘quvchining psixologik holatini inobatga olib motivatsiya berish, stressni boshqarish va kasb tanlash bo‘yicha ko‘maklashish [6];

• ishtirokchining shaxsiy portfoliosini shakllantirishda amaliy yordam ko‘rsatish (olimpiada va tanlov yutuqlari, sertifikatlar va ijtimoiy faollik natijalarini to‘plab, rasmiylashtirish);

• o‘quvchining nufuzli xorijiy oliy ta’lim tashkilotlariga hujjat topshirishi jarayonida (xalqaro testlarda ro‘yxatdan o‘tish, onlayn ariza to‘ldirish, motivatsiya xati va tavsiyanomalar tayyorlash) amaliy yordam berish [2,3].

Maktab maslahatchisi o‘z vazifasini samarali bajarishi uchun metodik materiallar va platforma resurslaridan foydalanish, zarur ma’lumotlarni Agentlik va ta’lim muassasalaridan so‘rab olish, malaka oshirish kurslarida qatnashish kabi huquqlarga ega.

Bir vaqtning o‘zida har bir maktab maslahatchisiga 15 nafardan ortiq bo‘lmagan Milliy dastur ishtirokchlari biriktiriladi.

Maktab maslahatchisi va ishtirokchi o‘rtasidagi ishlash mexanizmi

Milliy dastur ishtirokchilarining 10-11-sinf (yoki unga teng) davomida o‘qish va rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus elektron ta’lim platformasi va maslahatchilik tizimi yaratilgan.

Maktab maslahatchisi har bir biriktirilgan o‘quvchining individual rejasi ijrosini nazorat qilib boradi.

Milliy dastur ishtirokchilari uchun maxsus onlayn o‘quv platformasi yaratilgan bo‘lib, unda yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha kurslar tashkil etilgan.

Jumladan, nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalariga kirish uchun zarur bo‘lgan xalqaro imtihonlar – **SAT**, **IELTS** va boshqalarga tayyorgarlik kurslari onlayn tarzda doimiy o‘tkazilib borilmoqda.

Platforma orqali har bir ishtirokchiga o‘zining tanlagan yo‘nalishiga doir qo‘shimcha resurslar (onlayn kurslar, elektron kutubxona materiallari, maktab maslahatchisi tavsiya etgan adabiyotlar va h.k.) taqdim etiladi.

Ishtirokchilar uchun platformaning forum va chatlari orqali o‘zaro muloqot va tajriba almashish imkoniyatlari yaratiladi.

Maktab maslahatchilari platforma orqali o‘ziga biriktirilgan ishtirokchilarning topshiriqlarni bajarish holatini kuzatib boradi, test natijalarini ko‘rib tahlil qiladi hamda zarur tavsiyalarni beradi.

Platformada har bir ishtirokchi va maktab maslahatchi uchun shaxsiy kabinet mavjud bo‘lib, unda o‘quv rejasi, topshiriqlar taqvimi, eslatmalar va fikr-mulohaza almashish imkoniyatlari mavjud bo‘ladi.

Maktab maslahatchisi biriktirilgan ishtirokchilarda liderlik qobiliyatlari va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda mas’ul hisoblanadi.

Ishtirokchilar ikki yil davomida **ijtimoiy loyiha** yoki jamoatchilik faoliyatida ishtirok etishlari tavsiya etiladi (masalan, jamiyatga foyda keltiruvchi volontyorlik harakati, maktab yoki mahalla darajasidagi ijtimoiy tashabbus va h.k.).

Bunda maktab maslahatchisi ishtirokchilarga loyiha tanlash, reja tuzish va amalga oshirishda tavsiyalar beradi [4,5].

Ijtimoiy faollik orqali o‘quvchining fuqarolik pozitsiyasi, jamoada ishlash ko‘nikmalari hamda yetakchilik qobiliyatlari yanada rivojlantirishi maqsad qilingan.

Ishtirokchilarning tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirish maqsadida ularni turli tanlovlar va musobaqalarda faol qatnashishga jalb etishga maktab maslahatchilari mas'uldirlar.

Har bir ishtirokchi olimpiada, insho yoki startap tanlovi, sport musobaqasi yoki boshqa ijodiy bellashuvlarda qatnashib, yuqori natijalarga erishishi qo'llab-quvvatlanadi – bu ularning shaxsiy portfoliosidagi yutuqlarini boyitadi.

Maktab maslahatchilari har bir ishtirokchining ikki yillik ishtiroki davomida **shaxsiy portfolio**sini to'plashga yordam beradi. Portfolioda o'quvchining erishgan barcha yutuqlari hujjatlashtirilib boriladi:

• fan olimpiadalarida egallagan o'rinlari, sertifikatlari;

• turli tanlov va musobaqalardagi natijalari;

• qo'shimcha egallagan malaka sertifikatlari (masalan, xorijiy til yoki kompyuter savodxonligi bo'yicha);

• ijtimoiy faolligi (volontyorlik ishlari, to'garak va klublarda ishtirok etgani);

• maktab maslahatchisining tavsiyanomasi.

Ishtirokchi o'z portfoliosini platformaga yuklab boradi va maktab maslahatchisi tomonidan tekshirilib boriladi.

Bundan tashqari, 11-sinfda (yoki unga teng) maktab maslahatchisi o'quvchiga oliy ta'lim muassasalariga hujjat topshirishda bevosita amaliy yordam ko'rsatadi:

• zarur xalqaro imtihonlarga (IELTS, SAT va boshqalar) onlayn ro'yxatdan o'tish;

• nufuzli xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarining veb-saytlarida va maxsus platformalarda (Common App, UCAS va shu kabi) ariza to'ldirish;

• motivatsiya xati va tavsiyanomalar tayyorlashda ko'maklashadi.

Bosh maslahatchi va maktab maslahatchilarining malakasini oshirish va xorijiy tajriba almashuvi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi "Prezident iqtidorli farzandlari" tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–86-son Farmoni asosida, Milliy dasturning samarali amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida, maktab maslahatchilari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun 14 ta shtat birligidan iborat bo'lgan Bosh maslahatchilar guruhi tashkil etilgan bo'lib, bosh maslahatchi lavozimiga qabul qilingan xodimlar 14 ta hududga biriktiriladi.

Milliy dastur doirasida faoliyat olib boradigan bosh va maktab maslahatchilarining kasbiy mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Agentlik tomonidan bosh va maktab maslahatchilari uchun ilg'or mahalliy va xalqaro tajribalar asosida doimiy malaka oshirish tadbirlari tashkil etib boriladi.

Jumladan, bosh va maktab maslahatchilarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar, maslahatlashuv uslublari va xalqaro imtihonlarga tayyorlash metodikasi bo'yicha o'quv seminarlariga jalb etish rejalashtiriladi.

Malakali mutaxassislar, oliygohlar professorlari ishtirokida treninglar o'tkazish yo'lga qo'yiladi.

Zarur hollarda, bosh va maktab maslahatchilarining xorijiy tajriba almashuvlarida ishtirok etishi ham qo'llab-quvvatlanadi, xorijiy davlatlardagi o'quv-tarbiya jarayonini o'rganish uchun stajirovkalar, onlayn vebinarlar yoki xalqaro konferensiyalarda qatnashish imkoniyatlari yaratiladi.

Demak, yuqoridagi keltirilganlar asosida shuni ta'kidlash lozimki, "Prezident iqtidorli farzandlari" tashabbusini qo'llab-quvvatlash bo'yicha milliy dasturni amalga oshirishda maktab maslahatchilari ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, ularning roli o'quvchilar, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi muhim

ko‘prikni tashkil etadi. Ular o‘quvchilarning shaxsiy va akademik rivojlanishida yordam berish orqali, jamiyatning rivojlanishida ham o‘zlarining muhim hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Milliy dasturning asosiy maqsadlaridan biri bo‘lgan – o‘quvchilarni dunyoning nufuzli universitetlarida o‘qitishda maktab maslahatchilarining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy dastur ishtirokchilarini maqsadli yo‘naltirishda aynan maktab maslahatchilari mas’ul hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, maktab maslahatchilarining ro‘li nafaqat ta’lim, balki o‘quvchilarning hayotiy tajribasi uchun ham juda muhimdir. Ular o‘quvchilarga o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishda va kelajakda muvaffaqiyatli insonlar bo‘lishida yordam berishadi. Maktab maslahatchilari, shuning uchun, ta’lim tizimida ajralmas qism hisoblanadi va ularning ahamiyati har jihatdan e’tiborga molikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–86-son Farmoni.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 24-sentabrdagi “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy dasturning 2025-2026-o‘quv yili ishtirokchilari uchun o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish to‘g‘risida”gi 358-son buyrug‘i.

3. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 11-avgustdagi “Prezident iqtidorli farzandlari” tashabbusini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha milliy dastur faoliyatini samarali tashkil etish to‘g‘risida”gi 278-son buyrug‘i.

4. Baker, S. B., & Gerler, E. R. “School Counseling for the Twenty-First Century”, 4th Edition. Prentice Hall. USA. 2004.

5. Patricia H. and Norman C. Gysbers. “Leading and Managing Your School Guidance Program Staff: A Manual for School Administrators and Directors of Guidance”. 1998.

6. Gysbers, N. C., & Henderson, P. “Developing and Managing Your School Guidance and Counseling Program”. 5th Edition. Pearson Education, Inc. USA. 2012.

7. https://digitalcommons.odu.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1062&context=chs_etds

8. https://www.litres.ru/get_pdf_trial/68540926.pdf